

**O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI
PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN
KASBIY FAOLIYATNING HUQUQIY ASOSLARI VA BIOETIKA
FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Kasbiy faoliyatning huquqiy asoslari va bioetika fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Kasbiy faoliyatning huquqiy asoslari va bioetika

- 1.Umumiy qism;
- 2.Maxsus qism.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Umumiy qism	Mehnat huquqi predmetini bilishi, mehnat huquqining asosiy tamoyillari va manbalarini amaliyotda qo'llay olishi, mehnatga oid huquqiy munosabatlarni tahlil qila olishi, bioetika ta'limoti faoliyatini bilishi, jamoa shartnomalari bilan ishlay olishi, jamoa kelishuvi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	7,5 %	18 ta
2	Maxsus qism	Aholini ish bilan ta'minlash faoliyatini, mehnat shartnomasi tushunchasi va tarkibini, mehnat shartnomasini o'zgartirish, bekor qilish, ish vaqti, dam olish vaqti va mehnat ta'tillarini to'g'ri nazorat qila oladi. Mehnatga haq to'lash ishlarini, kafolatli to'lovlar va kompensatsiya to'lovlari, mehnat intizomi ishlari faoliyatini yurita oladi. Tibbiyot xodimlarining burchi va vazifalarini, mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligini, xodimlarga beriladigan qo'shimcha kafolat va imtiyozlarni qo'llashni bilasiz. Mehnat nizolari va ularni hal qilish tartibi haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.	7,5 %	22 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test

4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test
----	----	--

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to‘g‘ri javob 2 ball, noto‘g‘ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat’iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko‘chirish, yordam so‘rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta’limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo‘shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko‘rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o‘qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to‘g‘ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent “Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi” 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. 2022-yil

3. K.J. Matkarimov, Kasbiy faoliyatning huquqiy asoslari va bioetika.”Ilm-fan ” nashriyoti. Toshkent — 2024.